

UMURTQA POG’ONASINING ANATOMIYASI

Tojidinova O. SH.¹, Mirzabekova F. N.².

¹Andijon davlat universiteti talaba,

²Andijon davlat universiteti Odam va hayvon fiziologiyasi va HFX kafedra katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Salomatlik Allohning o’z bandalariga bergan eng ulug’ ne’mati bo’lib, aksariyat hollarda qadriga yetilmaydi. Insonlar o’z tanalarini qanday tuzulganligi va ular bilan qanday munosabatda bo’lishni to’g’ri yo’lga qo’ya olsalar ularda kasalliklarni oldini olish imkoniyati ko’proq bo’ladi. Sizlar bilan ushbu maqola yordamida tanamizning mukammal va murakkab bo’lgan ko’p vazifali a’zosi umurtqa pog’onasining anatomiyasi haqida bilimlarimizni yanada kengaytiramiz.

Kalit so’zlar: umurtqa pog’ona, bo’limlar, vazifa, himoya

Аннотация: Здоровье – величайший дар Бога его слугам, и в большинстве случаев он не ценится. Когда люди понимают, как устроено их тело и как с ним обращаются, у них появляется больше шансов предотвратить болезни. С помощью этой статьи мы еще больше расширим наши знания об анатомии и физиологии позвоночника - совершенного и сложного многозадачного органа нашего тела.

Ключевые слова: позвоночник, отделы, задача, защита.


Annotation: Health is the greatest gift of god to His servants, and in most cases it is not appreciated. When people understand how thier bodies are made and how they treat them, they have a better chanse of preventing disease. With the help of this article, we will further expand our knowledge about the anatomy and physiology of the spine, a perfect and complex multitasking member of our body.

Key words: spine, sections, task, protection

Umumjahon Sog’liqni Saqlash Tashkilotining bergan ma’lumotlariga ko’ra, umumiy amaliyot shifokoriga murojaat qilayotgan, mehnat qilish yoshida bo’lgan bemorlarning 5,0 – 7,0 % qismini bel sohasi og’riqlaridan shikoyat qilayotganlar tashkil qiladi. Umuman umurtqa pog’onasi soxasi og’riqlari esa bemorlar umumiy shikoyatlarining 10,0 %dan ortig’ini tashkil qiladi. Ushbu og’riqlarni keltirib chiqaruvchi sabablar o’smalar, infeksiyon xastaliklar, sinish, chiqish, orqa miyadan chiquvchi asab tolalarining yallig’lanishi va juda ko’plab sabablarni keltirishimiz mumkin. Xulosa qilishimiz kerakki aytilganidek umurtqa pog’onagiz sog’lom bo’lsa, siz ham sog’lomsiz. Inson tabiatning eng yuqori pog’onasida turgan bo’lagi. Umurtqa pog’onasi esa ana shu mukammal va mo’tadil vujudning eng murakkab va ko’p vazifali a’zolar jamlanmasidir. Umurtqa pog’onasi inson vujudini boshidan adog’iga biriktirib, o’zida tutib turuvchi mukammal qurulmadir.[1]

Inson tanasini tashkil qilishda 200 dan ortiq suyaklar, 100 dan ortiq turli shakl va o’lchamga ega bo’g’imlar ishtirok etadi. Umurtqa pog’onasi esa tana skeletining asosi bo’lib, bosh, qo’llar, chanoq va oyoqlarni o’ziga biriktirib turadi. Umurtqa pog’onasi 32-34 ta umurtqadan, 100dan ortiq bo’g’imlardan, 130 ga yaqin bog’lamlardan va paylardan, 35-37 taga qadar umurtqalararo tog’ay xalqalaridan iborat. Umurtqa pog’onasining faoliyatiga ta’sir ko’rsatuvchi ko’ndalang -targ’il mushaklarining soni 200 dan oshadi. Umurtqa pog’onasi 32-34 ta umurtqa suyaklardan tashkil topgan, ushbu umurtqa suyaklari faqat yangi tug’ulgan chaqaloqlardagina alohida mustaqil suyaklar sifatida ko’rinadi, ular keyinchalik bir butun

anatom-fiziologik birikmaga aylanib ketadi. Katta yoshli odamning umurtqa pog’onasi 5 ta bo’limlardan: bo’yin-7 ta, ko’krak-12 ta, bel-5 ta, dumg’aza-5 ta dum-4-5 ta umurtqalardan tashkil topgan. Umurtqa pog’onasining har bir bo’limi o’ziga xos bo’lgan xususiyatlarga ega. Har bir umurtqa suyagining tanasi, ravog’i va umurtqa teshigi farqlanadi. Umurtqalar o’zaro birikkandan keyin, teshiklar o’zaro qo’shilib, umurtqa pog’onasi kanalini hosil qiladi. Umurtqa pog’onasining kanali ichida orqa miya joylashadi. Orqa miya uchun umurtqa pog’onasi himoya qilish vazifasini o’taydi. Umurtqa ravog’idan 2 ta yuqori va 2 ta pastki bo’g’im o’simtali, chap va o’ng ko’ndalang o’simtalar hamda orqa tomonga qaragan bitta qirrali o’simta chiqadi. Yuqori va pastki umurtqalarning chuqurchalari o’zaro birikib, umurtqalar aro teshikni hosil qiladi, teshiklar orqali orqa miya nervlari va qon tomirlari o’tadi.[2]



[3]

Bo’yin qismi. Bo’yin umurtqalari 7 ta bo’lib, umurtqa pog’onasining boshqa qismlariga qaraganda biroz farqlanadi, ya’ni ularda yon o’simtalarning teshiklari uchraydi. Bu teshiklar bosh miyaga yo’nalgan qon tomirlarini o’tkazish uchun xizmat qiladi. Birinchi va ikkinchi bo’yin umurtqalari boshning o’z o’qi atrofida harakatlanishini ta’minlab beruvchi xususiyatga ega. Oltinchi bo’yin umurtqasi yonida uyqu arteriyasi o’tadi. Yettinchi bo’yin umurtqasi anatomik sanoq umurtqasi deb ataladi chunki, teridan yaxshi bilinib turadi.

Ko’krak qismi. Ko’krak umurtqalari 12 ta bo’lib, ularning yon tomonlarida qovurg’alarni biriktiruvchi bo’g’im yuzalari bo’lishi bilan farqlanadi. Ko’krak umurtqalarining tanalari bo’yin umurtqalariga nisbatan yirikroq bo’lib, birinchidan o’n ikkinchiga qadar kattalashib boradi. Yumaloq shakldagi umurtqa teshiklari bo’yin umurtqalariga nisbatan kichikroq bo’lib, qirrali o’simtali orqa va pastga qarab yo’nalgan. Ko’krak umurtqalari bir-birining ustiga cheripitsa singari yotadi, shu boisdan ham ko’krak umurtqalarning harakatchanligi bo’yin umurtqalarnikiga qaraganda kamroq.

Bel qismi. Bel umurtqalari 5 ta. Umurtqa pog’onasining boshqa qismlariga qaraganda tanasining kattaligi bilan farqlanadi, chunki aynan mana shu qismga zo’riqishning eng kattasi tushadi. 5-bel umurtqasining tanasi hammasidan katta va balandligi boshqalardan uzunroq bo’ladi. Qirrali o’simtali boshqa qismlardan farqli ravishda gorizontal yo’nalgan bo’lib, bu umurtqa pog’onasi bel qismi harakatchanligini yuqori bo’lishini ta’minlaydi.

Dumg’aza qismi. Dumg’aza suyaklari 5 ta bo’lib, o’zaro birikib ketgan va bir butunlikda umurtqa suyagini tashkil qiladi. Umurtqa suyagi uchburchak shaklga ega. Uchburchak shaklning asosi yuqorida bo’lib, 5- bel umurtqasi bilan birikib ketgan. Dumg’aza suyagining old yuzasi ichkariga botgan bo’lib, 4 ta ko’ndalang chiziqdan iborat. Uning ikkita yon tomonida dumg’aza teshiklari bor, ular orqali orqa miyadan chiquvchi nervlar o’tadi. Dumg’azaning uchi dum umurtqalari bilan birikib ketgan.

Dum qismi. Katta odamlarda rudimentar (qoldiq) dum umurtqalari 4-5 ta bo‘lib, o‘zaro birikkan holda bitta yaxlit dum umurtqasini hosil qiladi.

Orqa miyaning 32 juft nerv tolalari umurtqalararo teshik orqali chiqib, butun vujudni idora etishda ishtirok etadi.[4]

Saloomatlik ne‘mati barcha inoyatu-ne‘matlardan ulug‘dir. Aytib o‘tganimizdek umurtqa pog‘onasi inson tanasining o‘qidir, u faqat bir qancha suyaklar, disklar, bog‘lamlar va bo‘g‘imlarning jamlanmasigina emas, balki inson vujudining “asosiy energetik o‘zanidir”. Agar bu o‘zanning biror qismida tikilma hosil bo‘ladigan bo‘lsa va toklar o‘tkazuvchanligi buzulsa, albatta umurtqa pog‘onasining ma‘lum qismida joylashgan orqa miya nazorati ostidagi a‘zo va tizimlar faoliyati buziladi. Erta keksayishni va bemahal xastalanishni oldini olay desangiz, o‘z umurtqa pog‘onagizga holisona munosabatda bo‘ling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduxoliqov A. “Umurtqa pog‘onasi og‘riqlari: Afsonalar va haqiqatlar” – Toshkent 2011. [1]
2. Ahmedov N.K “Odam anatomiyasi” – Toshkent 2005 [2]
3. Lauralee Sherwood “Fundamentals of Human Physiology [3]
4. Bahodirov F.N. “Odam anatomiyasi” – Toshkent 2006. [4]